O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 25 - avgust 247-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston shahrining bosh rejasi bo‘yicha kengayish hududiga tushgan Boyovut tumani Dehqonobod massivi “Yangi avlod” MFY (“Yangi O‘zbekiston” massivi) hududidan “70 xonadonli ko‘p qavatli xizmat uyi” qurish uchun jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2022-yil 17-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi bayoni (2022-yil 14-martdagi 02-RA-2-1253-son) hamda 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmoni talablariga muvofiq hududlarda bojxona xodimlariga xizmat uylari qurish vazifasi yuklatilganligi, topshiriq ijrosi doirasida qabul qilingan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-noyabrdagi 636-son qarori bilan Sirdaryo viloyati markazida mahalliy hokimlik tomonidan ajratilgan yer maydonida 70 xonadonli ko‘p qavatli xizmat uyini qurish rejalashtirilganligi, bugungi kunda, Sirdaryo viloyatida xizmat uyi qurish uchun yer maydoni ajratish masalasi hal etilmaganligi sababli, loyihalashtirish tadbirlarini (topokarta, geologik o‘rganishlar, arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i, kommunal idoralarining texnik shartlari, loyiha-smeta hujjatlari va h.k) boshlash imkoniyatini cheklamoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, topshiriq ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash

maqsadida, Sirdaryo viloyati markazidan xizmat uyi qurish uchun yer maydoni ajratilishida amaliy yordam ko‘rsatishni so‘rab, 9/05-23-00160-son xat bilan qilgan murojaati, viloyatdagi vakolatli organlarning xulosalari asosida kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5 va 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10 va 25-moddalariga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 5-iyundagi 9/05-23-00160-son xat bilan viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatning tegishli tashkilot va korxonalarining ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Bojxona boshqarmasiga Guliston shahar bosh rejasi bo‘yicha kengayish hududiga tushgan Boyovut tumani Dehqonobod massivi “Yangi avlod” MFY (“Yangi O‘zbekiston” massivi) hududi tuman hokimligi ixtiyoridagi aholi punktlarining yerlari hamda sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan yerlardan “70 xonadonli ko‘p qavatli xizmat uyi” qurish uchun 3q-konturdan A1724401007/5 raqamli jami 0,09 gektar yer uchastkasini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati Bojxona boshqarmasi (Sh.Xayrullayev)ga:

Ajratilgan yer uchastkasida qurilishi rejalashtirilgan “70 xonadonli ko‘p qavatli xizmat uyi” qurish uchun belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorini 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda “70 xonadonli ko‘p qavatli xizmat uyi” qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**